



**ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI
DIREKTORLARINI BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna

*Toshkent shaxar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi inson resurslarini
boshqarish va rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv madaniyatining nazariy asoslarini tahlil qiladi. Boshqaruv madaniyati kontseptsiyasi, uning tarkibiy elementlari va boshqaruv jarayonidagi o'rni o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishning asosiy printsiplari va mezonlari yoritiladi. Shuningdek, direktorlarning professional boshqaruv faoliyatida madaniy va axloqiy qadriyatlarning ahamiyati, rahbarlik ko'nikmalari, kommunikatsiya, strategik fikrlash kabi boshqaruv kompetensiyalarining nazariy asoslari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv sifatini oshirish va direktorlarning kasbiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *boshqaruv madaniyati, didaktik model, ta'lim tashkiloti, direktor, pedagogik menejment, innovatsion boshqaruv.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы управленческой культуры директоров дошкольных образовательных организаций. Исследуется понятие культуры управления, ее структурные элементы и роль в процессе управления. Освещаются основные принципы и критерии формирования культуры управления в ДОО. Рассматриваются также теоретические основы таких управленческих компетенций, как значимость культурно-нравственных ценностей в профессиональной управленческой деятельности директоров, навыки руководства, коммуникации, стратегическое мышление. Результаты исследования служат повышению качества управления дошкольными образовательными организациями и обеспечению профессионального роста директоров.*

Ключевые слова: *культура, управление, управленческая культура, формирование управленческой культуры руководителя дошкольной образовательной организации.*

Annotation. *This article analyzes the theoretical foundations of the managerial culture of directors of preschool educational organizations. The concept of management culture, its structural elements and its role in the management process are investigated. The basic principles and criteria for the formation of a management culture in preschool institutions are highlighted. The theoretical foundations of such managerial competencies as the importance of cultural and moral values in the professional management activities of directors, leadership skills, communication, and strategic thinking are also considered. The results of the study serve to improve the quality of management of preschool educational organizations and ensure the professional growth of directors.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Keywords: *culture, management, managerial culture, formation of the managerial culture of the head of a preschool educational organization.*

Hozirgi zamon sharoitlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining maqomi va uning boshqaruv funksiyalari tubdan o'zgarib bormoqda, ya'ni bunda direktorning menejer sifatidagi faoliyatining o'ziga xosliklari boshqaruv ob'ektining o'ziga xosligi bilan shartlanadi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkiloti – bu ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi notijorat tashkilotdir. Ta'lim xizmatlari ko'zga ko'rinmaslik, ishlab chiqaruvchidan va iste'molchidan ajralmaganlik sifatning doimiy emasligi, natijaning saqlanmaganligi va kechiktirilganligi, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning uyg'unlashuvi bilan tavsiflanadi. Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi bo'lib ta'lim oluvchi, bu xizmatlarning xaridori bo'lib esa ota-onalar yoki ta'lim oluvchilarning o'zlari sanaladilar (ota-onalar ta'lim xizmatlarining ham soliq to'lash sifatida bevosita, ham qo'shimcha xizmatlar va ixtiyoriy badallarni to'lash shaklida bilvosita xaridorlari bo'lib sanalishlari mumkin).

Jamiyatning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi o'zgarishlar hozirgi zamon sharoitlarida bu muammolarning o'rganilishiga impul's berdi va kuchli qiziqishni keltirib chiqardi. Mana shunga bog'liq holda shaxsning iqtisodiy kompetentligini tadqiq qilish zaruratini ifodalaydigan bir nechta shart-sharoitlarni belgilaymiz. L.L.Lyubimov: "Rivojlanish jarayonida iqtisodiy bilim paradigmasining almashinuvi ro'y berib, bu jamiyatning iqtisodiy madaniyatida aks etadi va shaxsning iqtisodiy kompetentligida determinasiyalanadi" [83]

Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori faoliyatining ob'ekti sifatida ta'lim tashkilotining xo'jalik faoliyatiga asosiy e'tibor qaratiladi. Faoliyat jarayonida direktor ko'plab masalalarni, jumladan, o'z navbatida tashkilot faoliyati maqsadlarini shakllantiradigan ta'lim xizmatlari bozorida o'z segmentini qanday qilib egallash va uni himoya qilish kabi masalalarni hal qiladi. Mana shunga bog'liq holda maqsadni belgilash masalalarini hal qilishda direktor yuqori kasbiy kompetentlik asosida ish ko'rishi lozim bo'ladi.

Hozirgi zamon bosqichlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish tuzilmasi murakkablashib bormoqda va bunda u o'z ichiga moliyalashtirishning ko'p darajaliligi, ko'p kanalliligi, me'yoriy-jon boshiga moliyalashtirish tamoyillariga o'tish kabilarni oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining mustaqil, muxtor xo'jalik yurituvchi sub'ekt (notijorat tashkilot sifatida) maqomiga o'tishda uning direktoriga qo'yiladigan me'yoriy talablarning kengayishini – mustaqil yuridik shaxsi sifatida ta'lim tashkiloti faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslarini bilish, soliq, byudjet, mehnat va boshqa qonunchilik tarmoqlarini bilishini kutish lozim bo'lib, mana shu bilan direktorlarning ma'suliyati ham oshib boradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Hozirgi vaqtda iqtisodiy kompetentlik muammosini ishlab chiqishning ijtimoiy-iqtisodiy manbalari sezilarli ravishda kengaydi. Bu pedagogik hodisa sifatida shaxs iqtisodiy kompetentligini o'rganish zaruratini ko'zda tutadi.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish bilan bog'liq tadqiqotlar borasida eng mahsuldor bosqich XX asrning 60-80 yillari bo'lgan edi. Iqtisodiy tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan tadqiqotlar L.N.Ponomrev tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u iqtisodiy tarbiyani iqtisodiy madaniyatning paydo bo'lishi, bundan kelib chiqib esa – iqtisodiy kompetentlikning ham sharti deb hisoblar edi [103].

Pedagogikada iqtisodiy ta'lim va tarbiyani umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida N.I.Boldirev va B.T.Lixachyov lar ajratib ko'rsatdilar [32, 82]. Bu mualliflar iqtisodiy kompetentlikning tahliliga umumiy (tayanch) madaniyatning komponenti sifatida murojaat qildilar. Ko'rsatib o'tilgan ediki, iqtisodiy kompetentlik asosida sub'ekt-ob'ektning faoliyat yuritishida moddiy muhitni hosil qiluvchi iqtisodiy faoliyat yotadi.

Boshqaruv madaniyatini shakllantirish usullari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Ta'lim va malaka oshirish – pedagogik menejment bo'yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.

- Refleksiya va o'z-o'zini baholash – direktorning o'z boshqaruv faoliyatini tahlil qilishi va doimiy ravishda o'zini rivojlantirishi.

- Mentorlik va tajriba almashish – tajribali direktorlarning bilim va tajribalarini o'rganish.

- Innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish – zamonaviy axborot texnologiyalari va boshqaruv dasturlarini joriy qilish.

- Psixologik treninglar va jamoa bilan ishlash usullari – direktorning kommunikativ qobiliyatlari va jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantirish.

Boshqaruv tushunchasi tor ma'noda biror bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarini foyda keltirishi, samara berishi qanchalik faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayon borishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv keng ma'noli tushuncha sifatida jahondagi boshqaruv va uni tashkil etishning nazariyotchilaridan biri Piter F.Druker aytganidek, "Boshqaruv alohida faoliyat turi bo'lib, tashkil etilmagan betartib ommani, bir maqsadga yo'naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi element hisoblanadi". Boshqaruv nafaqat korxonada doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni o'z tanlagan yo'li maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim ta'sir etuvchi kuch hisoblanadi.

Boshqarish:

kelajakni ko'ruvchi;

faoliyatni tashkillashtiruvchi;

tashkilotni idora qiluvchi;



faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;

qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli quroldir. (Fransuz olimi A.Fayol).

Xulosa qiladigan bo‘lsak, boshqaruv madaniyatining nazariy asoslari pedagogika, menejment va psixologiya sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Samarali boshqaruv madaniyatiga ega bo‘lgan direktorlar ta‘lim tashkilotining rivojlanishini ta‘minlab, uning faoliyatini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv madaniyatini shakllantirish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u ta‘lim sifati va jamoaning barqaror rivojlanishiga bevosita ta‘sir qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida pedagog- tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish omili sifatida rahbarning boshqaruv kompetençiyasi “Mug‘allim xem uzliksiz bilimlendirio‘”, ilmiy-metodikalыk jurnal, №4, Nekis-2019, ISSN 2181-7138, 123-126 b

2. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarining kompetensiyasi «Maktabgacha ta‘lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba» mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya, 2024, materiallar to‘plami

4. Ravshanova, N. N. (2023). Designing Modern Models of Biological Education Theories and Content in Educators. *Telematique*, 22(01), 3034-3040.

5. Morozova Anjela Nikolayevna. Upravleniye metodicheskoy rabotoy v doshkolnom obrazovatelnom uchrejdenii na diagnosticheskoy osnove : Dis. ... kand. ped. nauk : 13.00.07 : Moskva, 2000

6. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма ISBN: 978-5-17-160209-3 2023 г. 320 с.

8. Norboyevna R.N., Shukurullaev A.O. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ekologik teatrni tashkil etish orqali ekologik konseptual asoslarini shakllantirish. // *Inter education & global study*. 2024. №7. B.122–128.

9. Ravshanova, N. N. (2025). REFLEKSIYA BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MUHIM SIFATI. *Inter education & global study*, (1), 362-370.

10. Asadov, M. (2025, July). HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).

11. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. *American Journal of Philological Sciences*, 5(03), 119-123.

12. Asadov, M. (2023). SIZIF HAQIDA MIF: KAMYU VA XURSHID DO ‘STMUHAMMAD. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).

13. Asadov, M. T. (2022). Existential interpretation of the motive of “loneliness” in the work “the stranger” by Albert Camus. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 1-6.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



14. Turaevich, A. M. (2022, January). LONELINESS AND ABSURDITY IS THE BASIS OF ALBER KAMYU'S CONCEPT OF ART. In European journal of science archives conferences series/Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive (Vol. 2013, p. 30).

